



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

175 b., ISBN:998-9943-9077-0-6.

4. Hayitboyev R., O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari, Monografiya, Samarqand, 2018.-143 b.
5. Hayitboyev R., S. A. Abduxamidov Navoiy viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish. SERVIS J. Maxsus soni, Samarqand, 2023.-91-96 b.
6. Hayitboyev R., O'zbekistonning cho'llarida turizmni tashkil qilish va rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Respublika amaliy-Grant-loyihasi, 2022-y.
7. Hayitboyev R., S. Abduxamidov, Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom yaqinlarining Navoiy viloyatidagi ziyoratgohlari. «Turizm sohasi iqtisodiyotning muhim drayveri» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to'plami (2023 yil 25-noyabr). Samarqand, 2023.-435-440 b.

Р.Хайитбоев, Ш.Садинов, Ф.Хасанов	R.Khaitboev, Sh.Sadinov, F.Hasanov
Перспективы развития туризма в Навоийской области	Prospects for the development of tourism in the Navoi region
Аннотация. В статье представлен анализ достижений Навоийской области в развитии туристической отрасли за последние годы и даны рекомендации по дальнейшему развитию туризма в регионе с использованием имеющихся ресурсов и возможностей в будущем. Ключевые слова: пустыни, регионы, ремесленник, родник, стратегия, задание, туристическое кольцо, лагерь, туристический кластер, кемпинг, глэмпинг, ярмарка.	Abstract. The article analyzes the achievements of the Navoi region in the development of the tourism sector in recent years and provides recommendations for the further development of tourism in the region using existing resources and opportunities in the future. Keywords: deserts, regions, craftsman, spring, strategy, task, tourism ring, camp, tourism cluster, camping, glamping, fair.

Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva – SamISI, Turizm va mehmondo'stlik mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Rayxona Sadriddinovna Amriddinova – SamISI “Turizm” kafedrası professori v.b., i.f.n.

GRUZIYA TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING REKREATSION TURIZM SEKTORINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning rekreatsion turizm sektori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi, uning iqtisodiy o'sish, bandlik, hududiy infratuzilma modernizatsiyasi va aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni yoritildi. Shuningdek, O'zbekistonning rekreatsion salohiyati Gruziya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, infratuzilma holati, boshqaruv modeli va xususiy sektor ishtiroki bo'yicha mavjud ustunliklar va kamchiliklar aniqlandi. Kalitso'zlar: rekreatsion turizm, turizm, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, jamiyat farovonligi, O'zbekiston turizmi, Gruziya tajribasi.
--

Kirish. Rekreatsion turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi jamiyat farovonligi, aholining sog'lig'i, madaniy rivoji va hududlarning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadigan ko'p qirrali jarayondir. U dam olish ehtiyojlarini qondirish bilan birga iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, infratuzilmani modernizatsiya qiladi va yangi ish o'rinlari yaratadi. So'nggi yillarda sog'lom turmush tarzi, ekologik hududlarga qiziqish va pandemiyadan keyingi sog'lomlashtirish ehtiyojlari rekreatsion turizm ahamiyatini yanada oshirib, xizmatlar sohasi, transport va bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Birlashgan Millatlar tashkilotining Turizm bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda xalqaro turizm tushumlari 1,9 trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, sayyohlar soni 1,52 milliard nafarga yaqinlashgan.¹ Turistik oqimlarning o'sishi nafaqat tarixiy va madaniy obyektlarga, balki rekreatsion va ekologik turizm manzillariga bo'lgan talabning ortishi bilan ham izohlanadi. Bu esa rekreatsion turizmning global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlab, uning ijtimoiy-iqtisodiy foydasini yanada oshirmoqda.

¹<https://www.untourism.int/news/international-tourist-arrivals-up-4-in-2025-reflecting-strong-travel-demand-around-the-world>

Rekreatsioon turizmning ijtimoiy samaradorligi ham alohida e’tiborga molik. Sog’lomlash-tirish xizmatlaridan foydalanish aholining jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilaydi, stress darajasini kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va jamiyatning umumiy hayot sifatini yuksaltiradi. Shu bilan birga, rekreatsioon hududlarning rivojlanishi ekologik muhofaza, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror turizm tamoyillarini qo’llashni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning rekreatsioon turizm sektori rivojlanishi hamda Gruziyaning rekreatsioon turizm tajribasi bilan solishtirish orqali mavjud ustunliklar, kamchiliklar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashdir. Tadqiqot rekreatsioon turizmning iqtisodiy o‘shishga qo‘shgan hissasi, bandlik darajasiga ta’siri, hududiy infratuzilma modernizatsiyasidagi roli, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati kabi ko‘rsatkichlarni qiyosiy baholashni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyot tahlili. I. S.Tuxliyev¹ rekreatsioon turizmga izohlashiga ko‘ra nafaqat dam olish, shuningdek, jismoniy, hissiy va ruhiy kuchlarni qayta tiklash maqsadida amalga oshiriladigan ommaviy turizm turi sifatida izoh beradi. Rekreatsioon turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengayib, ushbu yo‘nalishning iqtisodiy o‘shish, bandlik, hududiy rivojlanish va aholining salomatligiga ta’siri turli ilmiy maktablar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Xalqaro adabiyotlarda rekreatsioon turizmning iqtisodiy multiplikator effekti, xizmatlar sektorining diversifikatsiyasi va barqaror turizm siyosati bilan bog‘liq nazariy yondashuvlar ustuvor o‘rin tutadi.

W. Khairil² turizmni valyuta tushumlarini oshirish, YaIMni ko‘paytirish, investitsiyalarni jalb qilish va bandlikni kengaytiruvchi samarali strategiya sifatida baholaydi. Tadqiqotchilar uni mamlakat iqtisodiy rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq holda tahlil qilib, “tajriba iste’moli” sifatida talqin etadilar. A. Jo‘raboyev³ ta’kidlashicha O‘zbekiston tog‘li hududlari misolida rekreatsioon turizm tabiiy resurslar va landshaft xilma-xilligi orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

I.S.Tuxliyevning⁴ ta’kidlashicha, O‘zbekiston tabiati boy va rang-barang bo‘lib, mamlakatning turli hududlarida 200 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suvlari hamda balchiq manbalari aniqlangan. Bu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy-biologik va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi va ular asosida rekreatsioon turizm muassasalari tashkil etilgan.

J.Abdupattoxovning⁵ ta’kidlashicha mamlakatimizda 110 dan ortiq sayyohlik yo‘nalishlari bo‘yicha kompaniyalar faoliyat yuritadi, biroq ulardan atigi 30 tasi rekreatsioon turizmga ixtisoslashgan. Bu segment hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, uning kengayishi bandlikni oshirib, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik va kichik tadbirkorlikni faollashtirmoqda, infratuzilmaning modernizatsiyasiga turtki bermoqda. M. Godovykh⁶ tadqiqotlari turizmning yangi ish o‘rinlari yaratishi, infratuzilmani yaxshilashi, mahalliy madaniyatni jonlantirishi va ijtimoiy faollikni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, Z. Musotov⁷ rekreatsioon turizmning kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlanishigga hamda rekreatsioon hududlarning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishini aniqlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning rekreatsioon turizm sektori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini Gruziya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi. Qiyosiy yondashuv rekreatsioon turizmning iqtisodiy o‘shish, bandlik, hududiy infratuzilma modernizatsiyasi va aholining sog‘lom turmush tarziga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu metod O‘zbekiston sharoitida samarali boshqaruv, investitsion mexanizmlar va barqaror rivojlanish strategiyalarini ilmiy asosda belgilashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Rekreatsioon turizmning rivojlanishi Gruziya va O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu bo‘limda iqtisodiy ko‘rsatkichlar, infratuzilma rivoji, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, bandlikka ta’siri va davlat siyosati bo‘yicha

¹ I. Tuxliyev va boshqalar (2021), Turizm atamalarining izohli lug‘ati, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

² https://www.researchgate.net/publication/41846370_Tourism_Development_A_Geographical_Perspective

³ A. Jo‘raboyev, O‘zbekistonning tog‘li hududlarida rekreatsioon maskanlarni tashkil etish, Ilmiy tadqiqot va jamiyat muammolari, Farg‘ona politexnika instituti

⁴ I.Tuxliyev va boshqalar (2024), Turizm: nazariya va amaliyot, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

⁵ J. Abdupattoxov (2021), O‘zbekistondagi madaniy obidalar, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

⁶ <https://doi.org/10.3390/su17135849>

⁷ <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345107007>

qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. O‘zbekistonning rekreatsion turizm salohiyatini Gruziya tajribasi bilan solishtirish orqali ustunliklar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashdir.

So‘nggi o‘n yillikda Gruziya turizmi, xususan rekreatsion va sog‘lomlashtirish turizmini iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlaridan biriga aylantira oldi. Mineral buloqlar, tog‘-kurortlar, balneologik markazlar va Qora dengiz bo‘yidagi rekreatsion zonalar mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. 2024-yilda turizm Gruziya YaIMining 7–8%ni tashkil etib, xalqaro sayyohlardan 4,1–4,3 milliard AQSh dollari daromad keltirdi¹. Ushbu tashriflarning 11% dam olish va rekreatsion maqsadlarda amalga oshirilgan.

Kobuleti, Batumi, Borjomi va Tskaltubo kabi hududlar xalqaro brendga aylangan. Tog‘-kurortlar (Gudauri, Bakuriani) zamonaviy infratuzilma bilan jihozlangan, balneologik markazlar xalqaro standartlarga moslashtirilgan, xususiy sektor investitsiyalari yuqori, mineral suvlar (Borjomi, Nabeghlavi) xalqaro brend sifatida shakllangan, Qora dengiz bo‘yidagi zonalar esa yil davomida barqaror turist oqimini ta‘minlamoqda.

Rekreatsion turizm Gruziyada mintaqaviy bandlikning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, kichik biznes ulushi yuqori, davlat tomonidan yagona milliy strategiya ishlab chiqqan, rekreatsion hududlarni boshqaruvchi agentliklar faoliyat yuritadi va xususiy sektor bilan hamkorlik samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Mamlakatimizda rekreatsion turizmi rivojlantirish salohiyatiga ega bo‘lsa-da, bu segmentning iqtisodiy ulushi hali to‘liq shakllanmagan. Asosiy markazlar – Chimyon-Chorvoq, Zomin, Termiz sanatoriylari va Qoraqalpog‘iston ekologik zonalar global miqyosda yetarlicha tanilmagan. 2025-yilda turizm O‘zbekiston YaIMning taxminan 3,5–4%ni tashkil etdi, rekreatsion va dam olish turizmi esa ushbu ulushning qariyb uchdan bir qismini (1–1,2% YaIM) tashkil qildi. Ichki turizm iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri bo‘lib qolmoqda, 10,2 million turistlar qayd etilgan bo‘lib, ularning 30–35% dam olish va rekreatsion maqsadlarda kelgan².

Chimyon-Chorvoq zonasida infratuzilma modernizatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, biroq sanatoriylarning ko‘pi yangilanishga muhtoj, xususiy sektor investitsiyalari past. Davlat tashabbuslari ustun bo‘lib, xususiy sektorni jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. BMT Turizm bo‘limi hisobotida O‘zbekistonda tarkibiy islohotlar, raqobatbardoshlik reytinglaridagi o‘shish va xususiy investitsiyalarni kengaytirish zarurligi ta‘kidlangan³. Tog‘ iqlim zonalar yuqori rekreatsion salohiyatga ega bo‘lsa-da, termal suvlar va balneologik resurslar brendlashtirilmagan, cho‘l va ekologik turizm (Orolbo‘yi) hali rivojlanish bosqichida, rekreatsion hududlarda bandlik oshib bormoqda, ammo salohiyat to‘liq ishga solinmagan⁴.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston va Gruziya rekreatsion turizmining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki davlat boy tabiiy resurslar va rekreatsion salohiyatga ega bo‘lsa-da, ushbu salohiyatdan foydalanish samaradorligi bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Gruziya rekreatsion turizmi iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirib, mineral buloqlar, balneologik markazlar va Qora dengiz bo‘yidagi kurortlarni xalqaro brend sifatida shakllantirishga erishgan. Natijada, rekreatsion turizm mamlakat yalpi turizm daromadlarining asosiy qismini tashkil etib, 2023 yilda 4,1 milliard AQSh dollari daromad bilan pandemiyadan keyingi tiklanishni to‘liq ta‘minlagan.

O‘zbekistonda rekreatsion turizmning iqtisodiy ulushi hali to‘liq shakllanmagan, hududlar global miqyosda yetarlicha tanilmagan va infratuzilma modernizatsiyasi davom etmoqda. Xususiy sektor investitsiyalari pastligi hamda brending va marketingning sustligi raqobatbardoshlikni cheklamoqda. Gruziya bu borada sezilarli natijalarga erishgan bo‘lsa, mamlakatimizda jarayon endi shakllanmoqda.

Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish natijasida quyidagi takliflar berildi:

- O‘zbekistonning rekreatsion hududlari Chimyon-Chorvoq, Zomin, Termiz sanatoriylari, Orolbo‘yi uchun yagona milliy brend konsepsiyasini ishlab chiqish zarur.
- Gruziya tajribasidan kelib chiqib, mineral suvlar, tog‘- iqlim zonalar va ekologik hududlar bo‘yicha xalqaro reklama kampaniyalarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.
- Rekreatsion hududlarda transport, mehmonxona xo‘jaligi, sog‘lomlashtirish markazlari va

¹ <https://api.gnta.ge/storage/files/doc/eng%281%29.pdf>

² https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf?utm_source=copilot.com

³ <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284425808>

⁴ <https://www.untourism.int/investment/tourism-doing-business-investing-in-uzbekistan>

ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur.

- Gruzija tajribasiga o'xshash tarzda rekreatsion hududlarni boshqaruvchi maxsus agentliklar faoliyatini yo'lga qo'yish samaradorlikni oshiradi.
- Termal suvlar, balneologik resurslar va tog'-iqlim zonalarini ilmiy asosda baholash, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va sertifikatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.S. Tuxliyev va boshqalar. Turizm atamalarining izohli lug'ati. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. 2021.
2. I.S. Tuxliyev va boshqalar, Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024.
3. W. Khairil, W. Melissa Hassan, M. Salehuddin. Tourism development: a geographical perspective, Asian Social Science. 2009.
4. M. Godovykh, A. Flyall va A. Pizam, Exploring the impacts of tourism on the well-being of local communities, Sustainability 2025.
5. Z. Musotov, K. Kulakov va Z. Tarkhanova. Tourism and recreation their role in ensuring sustainable development of territories, E3S Web of Conferences. 2023
6. J. Abdupattoxov. O'zbekistondagi madaniy obidalar, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2021.

Н.Холбоева, Р.Амридинона Возможности развития сектора рекреационного туризма Узбекистана на основе опыта Грузии Аннотация. В статье проведён анализ социально-экономической эффективности сектора рекреационного туризма Узбекистана, раскрыта его роль в экономическом росте, занятости, модернизации региональной инфраструктуры и формировании здорового образа жизни населения. Кроме того, рекреационный потенциал Узбекистана сопоставлен с опытом Грузии, выявлены преимущества и недостатки в использовании природных ресурсов, состоянии инфраструктуры, модели управления и участия частного сектора. Ключевые слова: рекреационный туризм, туризм, социально-экономический рост, устойчивое развитие, благосостояние общества, туризм Узбекистана, опыт Грузии.	N.Kholboyeva, R.Amriddinova Opportunities for developing Uzbekistan's recreational tourism sector based on Georgia's experience Abstract. The article analyzes the socio-economic efficiency of Uzbekistan's recreational tourism sector, highlighting its role in economic growth, employment, modernization of regional infrastructure, and the promotion of a healthy lifestyle among the population. Furthermore, Uzbekistan's recreational potential is compared with Georgia's experience, identifying strengths and weaknesses in the use of natural resources, infrastructure conditions, management models, and private sector participation. Keywords: recreational tourism, tourism, socio-economic growth, sustainable development, social welfare, tourism in Uzbekistan, Georgia's experience.
--	--

Kamol Sharifovich Yuldashev – BuxDU, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası mudiri, i.f.f.d (PhD)

BUXORO VILOYATIDA AVTOTURISTLAR UCHUN “AVTOTURARGOH” LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada COVID-19 pandemiyasidan so'ng O'zbekistonda kuchaygan mustaqil avtoturizm tendensiyasi o'rganilgan. Mamlakat bo'ylab faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyaning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ularning xizmat modellari, narx siyosati va geografik qamrovi baholangan. Bundan tashqari, Buxoro viloyatida shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobillarda tashrif buyuradigan mustaqil turistlar uchun mo'ljallangan Camping & Auto Parking Area (CAPA) loyihasining konsepsiyasi, joylashish joylari, xizmat tarkibi va yillik daromad prognozi ishlab chiqilgan. Kalit so'zlar: avtoturizm, avtomobilni ijaraga berish, mustaqil turist, kemping, avtoturargoh, CAPA loyihasi, Buxoro viloyati, turizm infratuzilmasi, ichki turizm, daromad prognozi.
--

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.